TEXNOLOGIYA DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILAR IJODKORLIK FAOLIYATI SOHALARINI TADBIQ ETISH IKONIYATLARI

Samarqand davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va texnologik ta'lim kafedrasi 3 bosqich talabasi

MAMANOVA CHAROS ERKIN QIZI

Yoshlarni mustaqil xayotga va texnologiyaga tayyorlashni tubdan yaxshilash maqsadida umumta'lim maktabi oldiga o'z ishida ta'limni unumli texnologiya bilan qo'shib olib borish tamoyilini to'laroq amalga oshirish vazifasi qo'yilgan.

O'quvchilarni ijodkorlik faoliyatini tashkil etishga quyidagilar zamin hisoblanadi:

1. O'qitish va o'qish ta'limi jarayonini yangi pedagogik texnologiyaga binoan tashkil etish. Unda, dunyo qonuniyatlarini ijtimoiy tarixiy taraqqiyotining ongli sur'atda tushuntirish orqali o'quvchilarni yakka holdagi rivojlanish omillarga tayanish. Ta'lim jarayonidagi ikki jihat; tashqi tasvirlar va ichki imkoniyatlarni. Ta'lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchlarni hisobga olgan holda o'quvchilarni bilish faoliyatlarini tashkil etish bosqichlariga tayanish lozim.

2.Texnologiya ta'limidagi uzluksiz kasb – hunar ta'limi tamoyillariga binoan o'qituvchi faoliyatida ta'lim tamoyillarining o'rnini belgilashda o'quvchi bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanma – ta'lim tamoyillarini asos qilib olish muhim ahamiyatga ega.

3.Texnologiya ta'limining tarbiyalovchilik xarakteridagi tamoyili tarbiyalovchi ta'limning asosiy qoidalari; dunyoqarashni shakllantirish, ahloqiy sifatlarni va irodani tarbiyalash, tarbiyalashni shakllantirish, qobiliyatni o'stirishga alohida e'tibor berish lozimdir.

4.Texnologiya ta'limining ilmiylik tamoyillari ilmiy hamda asoslangan bilim – o'quvchi onggini haqqoniy rivojlantirishda etakchi o'rinni egallaydi. Unda o'quv materialidagi ilmiy – qonuniyatlarni aks ettirish, nazariy qoidalarni tushunish –

fikrlash faoliyati xarakterini belgilaydi.

4.Texnologiya ta’limining ketma – ketlik tamoyili borliqning o’zi ma’lum ketma – ketlik bo’lishini hamma tomonlama taqazo etadi. unda ta’lim jarayonida ham ketma – ketlik bo’lishi zarur. O’qitishdagi ketma-ketlik bo’lishi ma’lumdan - noma’lumga, yaqindan – uzoqqa, oson materialdan – qiyin materialni o’rganishga o’tishni taqazo etadi.

Texnologiya ta’limining tushunarli bo’lish tamoyili ta’limning o’quvchi yoshlar tushunchasiga mosligi, yangi bilimlarni o’quvchi ongidagi bilimlar bilan bog’lab, tushunarli qilib turmush tajribasiga asoslanish, umumiy saviyani yuqoriga ko’tarish, o’quv materiallarini o’quvchi rivojlanishiga mos bo’lishi bilan amalga oshirish alohida e’tiborga sazovor.

Texnologiya ta’limining ko’rsatmalilik tamoyili o’quvchilarga texnika-texnologiya tarixini xissiy bilish ko’rsatmalilik tamoyili asosida amalga oshiriladi. Texnologiya ta’limida o’qituvchining o’zi va amalga oshirgan dars jarayonidagi bilim, ko’nikma va malakalari asosiy ko’rsatma ekanligi, ta’limda yangi texnologiyalarni qo’llashga asos soladi.

Texnologiya ta’limida onglilik va faollik tamoyili zaminida yo’nalishlar bilimlarni umumlashtiradi, nazariyalarning aniq qo’llanishi fikr yuritishni ancha aniqlashtiradi. Texnologiya ta’limida mustaqil bilimlar berish tamoyili zaminida, o’rganilgan bilim, ko’nikma va malakalar o’quvchi onggida uzoq vaqt saqlanishi keyinchalik amaliyotga tadbiq etilishi uchun mustahkamlanishi zarur. O’quv materialidagi asosiy tushuncha qoidalarni bo’rttirish, asosiy fikr bola bilimlari bilan bog’lanishi, zurur qarash va e’tiqodlarni shakllantirishga asos soladi.

Texnologiya ta’limining alohidalashtirish tamoyili o’quvchi shaxsiga yarasha alohida yondoshish, dars jarayonida va darsdan tashqari yondoshuvlar mazmunida ta’lim tamoyillarini qo’llashdagi o’zaro bog’liqliligi, ijobiy intilishlar hosil qilishadi. Unda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, dasturiy ta’limni hosil qilishga zamin bo’ladi.

Texnologiya ta’lim mazmuni tarixiy va milliy xususiyatlarga ega: Unda texnologiya ta’limi davlat siyosati bilan belgilanadi. Texnologiya ta’limi aqliy rivojlantirish vazifasini o’z ichiga oladi shu bilan birga texnologiya ta’limi mazmuni: DTSlar asosida o’quv predmeti, dasturi va rejadan iborat. Darslikda keltirilgan texnologiya ta’limi mazmunini ochib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Texnologiya ta’limidagi o’quv predmetiga oid ta’lim mazmunini ochib berish, darsga oid hujjatlarni tayyorlash muhim ahamiyatga egadir. Dars jarayonida tug’iladigan muammolar tahlili, hozirgi zamon mutaxassislariga qo’yiladigan talablar, mutaxassislarni tayyorlashda o’qitish uslubiyotlari izchilligini ta’minlashga zamin hisoblanadi. Unda ta’lim mohiyatidan kelib chiqqan holda tamoyillardan foydalanib, texnologiya ta’limi uslubiyotlarini qiziqarli va sifatli qo’llash muammolarini echishini aniqlashga asoslanadi. Texnologiya ta’limi uslubiyotlarini yangilash tavsiyalarini tahliliy holatda ishlab chiqiladi.

Mazkur tamoyillarni pedagogik faoliyatda tadbiq etilishi uch bosqich mobaynida amalga oshiriladi:

Birinchi: Maktab sharoitida va imkoniyatiga binoan texnologiya darslari jarayonida yilma - yil, bosqichma - bosqich qayd etilgan har bir tamoyil texnologiya ta’limi tizimiga xosligi va muzmunan holatida tatbiq etilib tajriba orttiladi.

Ikkinchi: malaka oshirish kurslar mobaynida qayd etilgan tamoyillar yuzasidan paydo bo’lgan yangiliklar, tajribalar hamda istiqbollar bo’yicha navbatdagi kursgacha mustaqil bajaradigan ishlar reja - dastur ishlab chiqiladi. Unda texnologiya ta’limi o’qituvchi - tinglovchi sifatida bitiruv ish holatida, o’z sohalariga oid kasbiy pedagogik ishlarni bajarishlarini hisobga olish kerak bo’ladi. Qolaversa, ular kasb - hunar ta’limi pedagogika yuzasidan o’zlarini o’ylantirayotgan hozirgi bozor muammolari va ularni bartaraf etishga ijodiy yondoshsa o’rinli bo’ladi. Mazkur muammolar texnologiya ta’limi o’qituvchilarini malaka oshirish kursini o’qigan vaqtlarda ishlab chiqilib vaqtinchalik bitiruv ishlar to’la hajmda yakunlanadi, sifatli

tasdiqlab olib maktabga qaytadi va uni joriy etishga kirishadi. Bitiruv ishlari quyidagi mazmunni qamrab olish mumkin: Milliy hunarmandchilikni tiklash va kasb - hunarga yo'naltirish, o'quv jarayoni tahlili asosida mavzu belgilanadi. SHu yo'sinda beriladigan aniq tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqiladi;

1. Yoshlarni hunarga o'rgatish muammolari va ularni bartaraf etish;
2. Tarixiy manbalarni o'quvchilarning o'zlashtirishlari va ulardan hunar o'rganish jarayonida foydalanishning ba'zi bir jihatlari;
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchi yoshlar tarbiyasidagi qiyinchiliklar va ularni engish tavsiyalari, fikr - mulohazalar bayoni;
4. "Maktab o'quvchi"si va "bilim yurti o'quvchi"si o'rtasidagi farq uning salbiy sabablarini tugatish xulosalari, tavsiyalar va asoslar;

Texnologiya o'qituvchisi darsga tayyorlanayotganda xar xil metod va usullarni qo'llab yangi materialni qanday bayon qilishni o'ylaydi. Texnologiya o'qituvchisi oldida o'quvchilarni o'quv ishlab chiqarish kollektivlarini tashkil qilish, ular orasida ishlab chiqarish munosabatlarini yo'lga qo'yish masalasi paydo bo'ladi. Bundan tashqari boshqa o'quv fanlardagi kabi texnologiya o'qituvchisida o'quvchilarni texnologiya usullarini to'g'ri bajarishni, olingan bilimlarni amalda qo'llashni kontrol qilish va ularning o'quv faoliyati natijalarini baholash funkstiyasini saqlanib qoladi.

Quyidagilar mexnat o'qituvchisiga xos bo'lishi kerak:

1.Yuqori g'oyaviylik. O'qituvchi o'sib kelayotgan avlodimizni tarbiyachisidir.

2.Yuqori texnik malaka. Masalan texnologiya ta'limi jarayonida 5-7 sinf o'quvchilari chilangarlik, duradgorlik, tokarlik ish elementlari bilan tanishadilar. SHu munosabat bilan xar bir o'qituvchi duradgorlik yoki 2-3 razryadli chilangarlik kasbini, elektromontyorlik kasbi asoslarini egallashlari kerak, keyingi amaliy faoliyat jarayonida o'z maxorati darajasini uzluksiz oshira borishi kerak.

3.Yuqori psixologik-pedogogik tayyorgarlik. Texnologiya o'qituvchisining o'zi bilim

va malakalarini yuksak saviyada egallabgina qolmay, balki o'quvchilar ham ma'lum malakalarni tarkib toptirish uchun ularga bilimlar berish kerak.

4.O'z kasbiga muhabbat. Maktabda ishlash ko'p xursandchilik, ijodiy xuzur bag'ishlaydi, ammo bularga chidamlilik, xayrixoxlik, tarbiyalanuvchilarga xurmat, ularga muhabbat bilangina erishiladi.

O'quvchilar texnologiya ta'limi jarayonida foydalaniladigan uslubiy vositalar ham o'zgarmay qolmaydi. o'z ishiga ijodiy yondashuvchi o'qituvchilar o'quvchilarga ta'sir qilishning yangi formalarini, uzluksiz ravishda bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishni yangi usullarini topadilar.

O'quvchilar jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan yoki uning uchun yangilik bo'lgan mahsulot yarata olmaydilar. Qolaversa, bu ularning, maktabning vazifasiga kirmaydi. Maktab o'quvchisining ijodi uning mahsulot tayyorlashi, buyum yasashida namoyon bo'ladi. Bunday ish jarayonida ular egallagan bilimlari, malaka va ko'nikmalarini qo'llaydilar. O'rgatuvchi ijodiy faoliyatiga, birinchi navbatda, ijodkor shaxsning sifatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi faoliyat sifatida qaraymiz. Bu faoliyat davomida o'quvchilarning aqliy faolliklari, bilag'onliklari, tadbirkorliklari, aniq ish bajarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashga intilishlari, masala tanlash va uni echishda mustaqilliklari, turli masalalar ichida eng asosiylarini tanlay bilish kabi sifatlari rivojlanadi.

Ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda darsning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning yakuniy maqsadini maktab o'quvchilarining ijodiy sifatlarini rivojlantirish va shakllantirishdan iborat etib belgilash mumkin. Bu maqsadga o'quvchilar qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilash orqali erishish mumkin. Shuning uchun aniq vazifalar quyidagicha belgilandi.

1. Bolalarni turli faoliyatga jalb qilish. Bunga maxsus tanlangan amaliy ishlar turlari orqali erishish mumkin. Bu ishlarning muvaffaqiyatli bajarilishi texnologiya, rasm,

chizmachilik va boshqa fanlar bo'yicha bilimlardan foydalanishni taqozo etadi. Aniq buyum yasash jarayonida bu asosiy bilimlarni o'zlashtirish, o'z navbatida ularni yuqori sinflarda chuqur nazariy asoslashga yordam beradi.

2. O'quvchilarda texnologiya faoliyatining yangi turlarini tez o'zlashtirishga yordam beruvchi malaka hosil qilish.

3. Amaliy faoliyat bilan bog'liq turli yangi vazifalarni bajarishda topqirlikni rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M Mirziyoyevning "Oliy Majlisga murojaatnomasi". – T. 2020 -yil 29-dekabr.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Oliy Ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"Gi farmonii. Pq-5847-son. 2019-yil.

3. Sharipov Sh. S, Muslimov N. A "Texnik ijodkorlik va dizayn" Bakalavriat Texnologik ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma T;-2007 y 6-7 b ,15-18b

4. Txarjevskiy A. "Texnologik ta'limi metodikasi",T,:O'qituvchi 1990y

5. Sharipov Sh. S,"Ixtirochilik to'garagi" To'garaklar-yoshlar intellektual salohiyatini oshirish omili; Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari-Toshkent TDPU,2010